Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
<i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
<i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
<i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
<i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>	
Pedagogik mahorat	908
<i>Zakirova Dilfuza Ergashboyevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
<i>Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
<i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
<i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
<i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
<i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>	
Дифференцированный подход как условие для преодоления дислексии у учащихся.....	935
<i>Моминова Тойгул Боходир кизи</i>	
Improving the Methodology of Developing Phonetic Competencies of Primary School Students	939
<i>Zilolaxon Kenjayeva Saminjon kizi</i>	
Bolalar tadbirkorligini rivojlantirishning zaruriyati.....	943
<i>Axmadaliyeva Muxarramoy Olimjon qizi</i>	
Assessing and Monitoring Pedagogical Creativity in Modern Education Processes.....	948
<i>Abdulkhayev Abduvokhid Abdulbori ugli</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirishning milliy an'ana va pedagogik tajribalar asosida tahlili	951
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktabgacha ta'lim sohasida inson resurslarini rejalashtirishning ahamiyati va mehnat bozori tendensiyalari tahlili	956
<i>N. Sh. Miryusupova</i>	
Emotsional intellektning ahamiyati va uning psixologik hamda fiziologik xususiyatlari	960
<i>Bahodirova Shahnoza Rustam qizi</i>	
O'zbek tili darslarida o'quvchilarda PISA topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish	964
<i>Kamshat Baymenova</i>	
Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim omili sifatida	967
<i>Kazakov Ne'mat Normurodovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni shakllantirishda kasbiy refleksiyaning psixologik-pedagogik asoslari	971
<i>Komiljonova Dilyoraxon</i>	
O'zbek xalq dostonlarini interfaol usullar yordamida o'qitish	973
<i>Nurjanova Yulduz Shukirillayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirishning tarkibiy-funksional tuzilmasi	976
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
Kasbiy maslahat – maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning samarali vositasi sifatida	980
<i>Raxmatova Sevara Abdulloevna, Gulyamov Djaxangir Raxmatullaevich</i>	
Umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari	986
<i>Saydullayeva Shahlo Sobir qizi</i>	

Pedagogik modellashtirishning o'ziga xos jihatlari va nazariy asoslari.....	990
Sharipov A'zamjon Axmadjonovich	
Talabalarda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari	994
Valixanov Ilyos Iloxamovich	
Ta'lim texnologiyalarini mashg'ulotlarda qo'llashning o'ziga xos jihatlari.....	998
Valiyev Sarvar Abdusalimovich	
Ishonch – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida	1002
Xo'jamova Kamola To'liqin qizi	
Jahon va O'zbekiston tajribasida kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish yondashuvlari	1006
Rajapov Sulaymon Nuraddin o'g'li	
Iqtisodchilarning kasbiy faoliyatida ingliz tilining o'rni va ahamiyati.....	1010
Samandarova Nargiza Muxammadovna	
Praksiologik yondashuv – pedagogik ta'limning metodologik asosi sifatida.....	1015
Rashidova Zulayho Olimjon qizi	
Talabalarga ingliz tilini o'rgatishda “pen pals” loyihasidan foydalanish modeli	1020
Tuymanova Inobat Fozilovna	
Gamifikatsiya asosida ingliz tili darslarini tashkil etish metodlari.....	1024
Ahmadaliyeva Hilolaxon A'zamjon qizi	
O'zbekistonda ingliz tilini o'rganayotgan yosh o'quvchilarda gapirishga bo'lgan xavotir darajasi: rol o'ynash intervensiyasi	1029
Mannapova Maftunaxon	
Ingliz tili darslarida o'quvchilarning grammatik ko'nikmalarini story-based learning usulidan foydalanib shakllantirish metodikasi.....	1033
Xalilova Sevara Kamoliddin qizi	
Integrating the Case Study Method Into Teaching Medical English: an Innovative Pedagogical Research.....	1037
Xoshimova Azizaxon Saxobiddinovna	
Boshlang'ich sinf darslarini 4K modeli asosida tashkil qilishning ahamiyati va samaradorligi	1041
Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi	
Критерии эффективности системного подхода в образовании и воспитании детей, находящихся на длительном лечении	1044
Алимова Нигора Исраиловна	
Развитие учебной мотивации через дифференцированный подход в преподавании физики.....	1049
А. Б. Камалов, М. П. Серимбетова	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida media savodxonlikni shakllantirish metodikasi	1053
Astanaqulova Nilufar Dilmurod qizi	
Talabalarda web platformadan foydalanish asosida kompyuterli modellashtirish ko'nikmasini rivojlantirish	1058
Xazratqulov Abduvohid Abdurauf o'g'li	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish	1062
Gulyamova Aziza Anvarovna	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muammosining mavjud holati	1066
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni qoidali o'yinlar orqali jismoniy va ruhiy rivojlantirishning shart-sharoitlari	1070
Umarova Mehriniso Ibragim qizi	

KASBIY MASLAHAT – MAKTAB O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA

Raxmatova Sevara Abdulloevna

O'zbekiston Respublikasi
Navoiy davlat universiteti, o'qituvchi

Gulyamov Djaxangir Raxmatullaevich

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo'limi, p.f.n., dotsent

Annotatsiya: Maqolada maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda kasbiy maslahatning o'ri, turlari va mazmuni, shuningdek, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish samaradorligini oshirishda individual karyera rejasini shakllantirish va rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotning asosiy mazmuni maktablarda kasbiy maslahat tizimini yo'lga qo'yishning ilmiy-uslubiy asoslarini aniqlashdan iborat. Unda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili hamda ilg'or pedagogik tajribani o'rganish metodlaridan foydalanilgan. Kasb-hunarga yo'naltirish murakkab vazifa bo'lib, bunda insonning qiziqishlari, manfaatlari, ehtiyojlari, orzu-umidlari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa bir qator omillar hisobga olinishi zarur. O'quvchi-yoshlarning kasbiy va hayotiy yo'lini mustaqil tanlash huquqi zamonaviy kasbiy maslahatning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, uning asosiy maqsadi – yuqori sinf o'quvchisida kasbiy maqsadlarni belgilay olish ko'nikmasini aniqlash, korreksiyalash va imkon qadar mustaqil shakllantirishiga yordam berishdan iborat. Refleksiya – o'zini-o'zi tartibga soluvchi, ko'p bosqichli aks aloqa asosidagi psixologik mexanizm bo'lib, o'qituvchining kasbiy yetukligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Refleksiv kompetentlikni shakllantirish, pedagogik faoliyatni chuqur tahlil qilish va yangicha qarashlarni rivojlantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy talablarga mos tayyorlash mumkin.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, refleksiya, pedagogik refleksiya, refleksiv kompetentlik, psixologik tahlil, o'zini anglash, o'zini boshqarish, fikrlash, rivojlanish.

Abstract: The article highlights the role, types, and content of career counseling in guiding school students towards professions, as well as the importance of forming and developing an individual career plan to increase the effectiveness of vocational guidance. The main content of the research lies in determining the scientific and methodological foundations for establishing a system of career counseling in schools. The study employed analysis of local and international scientific literature and methods of studying advanced pedagogical practices. Career guidance is a complex task that requires consideration of a person's interests, needs, aspirations, abilities, health, and several other factors. The student's right to independently choose their professional and life path is the starting point of modern career counseling. The main goal of this activity is to help high school students identify, adjust, and, as far as possible, independently develop the ability to set professional goals. Career guidance and counseling work in schools should be carried out in the following directions: informing students about types of professions and the labor market situation, assisting in searching for information about the content of professions, providing methodological support for career guidance lessons, and cooperating with teachers and parents.

Key words: student, career guidance, career counseling, career diagnostics, individual career plan.

Аннотация: В статье освещены роль, виды и содержание профессионального консультирования в профориентации школьников, а также значение формирования и развития индивидуального карьерного плана для повышения её эффективности. Основное содержание исследования заключается в определении научно-методических основ организации системы профессионального консультирования в школах. В исследовании использованы анализ отечественной и зарубежной научной литературы, а также методы изучения передового педагогического опыта. Профориентация – сложная задача, при решении которой необходимо учитывать интересы, потребности, устремления, способности, здоровье человека и ряд других факторов. Право учащихся самостоятельно выбирать профессиональный и жизненный путь является отправной точкой современной профориентации, а её основная цель – помочь старшекласснику выявить, скорректировать и, по возможности, самостоятельно сформировать умение определять профессиональные цели. Профориентационная и консультативная работа в школах рекомендуется в таких направлениях, как информирование о видах профессий и ситуации на рынке труда, помощь в поиске информации о содержании профессий, методическое обеспечение профориентационных занятий, а также сотрудничество с учителями и родителями.

Ключевые слова: ученик, профориентация, профессиональное консультирование, профессиональная диагностика, индивидуальный карьерный план.



KIRISH

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimi zimmasiga o'quvchi-yoshlarda bilim olishga intilish, ma'naviy va axloqiy poklanish, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarni yanada shakllantirish, ularni jismonan va ruhiy jihatdan sog'lom bo'lib o'sishlarini ta'minlash vazifalari yuklatiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son'li Farmoni bilan tasdiqlangan "Maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur"da Respublikamizdagi o'quv-tarbiya muassasalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, bunda 9-11-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalari hamda muddatli harbiy xizmatni o'tashga yo'naltirish, professional yoki oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirmagan 11-sinf bitiruvchilarini tizimdagi tashkilotlarga ishga joylashishlariga ko'maklashish, shuningdek kasb-hunarni egallash istagida bo'lgan 9-11-sinf bitiruvchilarini turli zamonaviy kasb-hunarga o'qitish markazlari va mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlariga yo'naltirish ishlari yo'lga qo'yilgan^[1]. Shu sababli Sh.M. Mirziyoyev "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala", deb ushbu masalaga alohida urg'u berganlar^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasb-hunarga yo'naltirishga oid ilmiy tadqiqot olib borgan bir qator olimlar (Ambarova P. A., Nemirovskiy M. V., Grinshpun S. S., Davletshin M. G., Zeyer E. F., Magzumov P. T., Romanova Ye. S., Selivanova Z. K., Yuzlikayev F. R.) o'quvchi-yoshlarning kasbiy va hayotiy yo'lini mustaqil tanlash huquqini zamonaviy kasbiy maslahatning boshlang'ich nuqtasi sifatida e'tirof etish lozimligini qayd etganlar. Ilmiy tadqiqotchilar ushbu vazifaning murakkab va qiyin ekanligini alohida ta'kidlab, unda o'quvchining qiziqishlari, manfaatlari, ehtiyojlari, orzu-umidlari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa bir qator omillar hisobga olinishi zarurligiga urg'u berganlar^[7; 10; 12; 15; 18; 19; 21]. Buning uchun, agar maktabning kasb maktabi, oliy ta'lim muassasalari va sanoat ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida bog'lanish mavjud bo'lsa, bu masala samarali hal etilishi mumkin^[21].

Mavzuga oid ilmiy-uslubiy ishlar (Grinshpun S. S., Dianina Ye. V., Krupskaya Yu. V., Serkova Ye. I., Muslimov N. A., Romanova Ye. S., Shamsutdinova I. G.) tahlili kasbiy maslahatchining vazifasini o'quvchiga ongli va mustaqil ravishda harakat qilishda yordam berish, o'quvchining izlanish faolligini rivojlantirish va kelgusidagi mehnat subyekti sifatida o'zini anglash darajasini oshirishga qaratilgan faoliyat sifatida ta'riflagan. Bunda kasbiy maslahatchi maslahat olayotgan shaxsda o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan kasbni tanlash sharoitida yo'nalish topa olish ko'nikmasini shakllantirishi lozim bo'lib, ushbu tadbirlar o'qituvchilar, ota-onalar, mehnat birjasi, oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari bilan o'zaro hamkorlikda tashkil etilishi belgilangan^[8; 11; 14; 16; 18; 20].

Maslahatchi o'quvchi bilan uchrashishdan oldin unga oid avvalgi ma'lumotlarni sinf rahbaridan oladi va shu asosda kasbiy tanlov jarayonida o'quvchi uchrayotgan mavjud qiyinchiliklar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lib, yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan yo'llarni aniqlaydi. Kasbiy maslahat beruvchi mutaxassis o'quvchining kasb tanlashiga oid mavjud holatni hamda optant uchrashuvdan nimani kutayotganini aniqlashga urinadi. Bu bosqichda kasbiy diagnostikaning murakkab va katta hajmdagi usullariga qaraganda suhbat va kuzatish kabi oddiy usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi^[9; 17].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mutaxassis-maslahatchi suhbat jarayonida o'zining ishchi taxmini bilan mazkur uchrashuvdan o'quvchi kutayotgan real natijani qiyoslab, uning kasb tanlashdagi muammosini aniqlashi va konkret holatlar (o'quvchining maqsadi, kasbga qiziqishi va qobiliyatlari; hududning turli soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji va shu kabi)dan kelib chiqib, kasbiy maslahat berishi lozim^[11]. Ayrim hollarda esa o'quvchining aniq kasbiy maqsadlari yetarlicha shakllanmagan bo'lib, kasb talablarini, shu kasb bo'yicha ta'lim muassasalarini hamda o'z imkoniyatlarini to'liq bilmasligi, o'zini ishonchsiz his qilishi va muammoni hal qilish yo'llarini ko'ra olmasligi, masalan, OTMga kirish uchun qanday tayyorlanish kerakligini yoki kasbiy maqsadlariga erishishida ota-onasi, do'stlari va yaqinlari bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga kelganligi sababli kasbiy maqsadlariga yetishishiga xalaqit berishi mumkin^[9].

Mutaxassis suhbatning boshida o'quvchining muammoga munosabatini aniqlashi – kasbiy maslahatning asosiy maqsadini belgilash, mazmunini ishlab chiqish hamda shakl va usullarini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Kasbiy maslahatda o'quvchining yoshi va tadbirning maqsadini hisobga olib, maslahatchi va

1 <https://lex.uz/uz/docs/-6476175>

o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir turidan kelib chiqib, kasbiy maslahatning turi tanlanadi ^[4]. Kasbiy maslahatni maqsadlaridan kelib chiqib, quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. **Informatsion-ma'lumot beruvchi** – o'quvchilarni kasblar va tegishli ta'lim muassasalarining talablari, shuningdek, kasbga oid ma'lumot olish imkoniyatlari bilan tanishtiradi.
2. **Shakllantiruvchi** – o'quvchiga kasbni o'zining individual xususiyatlari, kasbiy moyilligi, mehnat bozorining ehtiyojlari va kasb talablaridan kelib chiqib mustaqil va ongli ravishda tanlash yo'llarini o'rgatadi ^[12].
3. **Diagnostik-korreksiyalovchi** – o'quvchi tanlamoqchi bo'lgan kasbini egallash imkoni turli obyektiv va subyektiv sabablar tufayli mavjud bo'lmaganda, uning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olib, kasbiy-muhim sifatlari va mutaxassislar qo'ygan talablarni hudud ehtiyojlari bilan moslashtirgan holda kasbga tayyorgarlik strategiyasi ishlab chiqiladi va kasbiy maslahat shu strategiya asosida amalga oshiriladi.

Bu maqsadlarga erishishda R. Kettellning 16-OSHS (16-FLO) kabi metodikalari qo'llanilishi mumkin. Biroq metodika mazmunini oshkor etmasdan, o'quvchiga kasbiy maslahatning maqsadi va umumiy mantig'i doirasida ushbu metodikani qo'llashning maqsadga muvofiqligini tushuntirish kerak. Amaliyotda esa ko'plab kasbiy maslahatchilar o'quvchilarni turli kasbiy va psixologik testlar yordamida tadqiq qilishadi. Ayrim testlar vazifalarga mos kelmasa-da, olingan natijalarni kasb talablari bilan taqqoslash orqali kasbiy tavsiyalar berilishi kuzatiladi ^[15; 16]. Bunday vaziyatlarda o'quvchi passiv rolni egallab, faqat sinov obyekti sifatida qatnashadi. Bunday yondashuvning no'rinligi shundaki, kasbning barcha talablarini har doim ham aniq belgilab bo'lmaydi, shuningdek, o'quvchining individual-psixologik xususiyatlari o'zgarishda davom etadi.

Erta kasbiy maslahat tadbirlari bolalar kasb tanlashidan bir necha yil avval o'tkazilib, asosan ma'lumot berish xususiyatiga ega bo'ladi. Bunda bolalar kasblar olami bilan umumiy tanishadilar, ayrim mehnat turlaridagi tajribalarini birgalikda muhokama qilishlari ham nazarda tutiladi. Bu jarayonda diagnostika metodikalari va kasbga yo'naltirish tavsiyalarini ishlab chiqish bilan birga, bolalarning ijtimoiy va kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish maqsadida qo'llanilishi mumkin ^[15; 17]. Bunday tadqiqotlar natijalari o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan bolalar bilan keyingi ishda foydalanilishi mumkin. Bitiruv sinflaridagi o'quvchilar kasb tanlashidan bir necha oy oldin o'tkaziladigan kasbiy maslahat ularning kasbiy qiziqishlarini aniqlash, kasb tanlashga tayyorgarlik ko'rish va tegishli o'quv yurtiga kirish yo'llarini belgilashda yordam berishga qaratiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda kasbiy maslahatning asosiy maqsadi – yuqori sinf o'quvchisining yaqin, o'rta va uzoq muddatli kasbiy maqsadlarni belgilash ko'nikmasini aniqlash, korreksiyalash va imkon darajasida mustaqil shakllantirishiga yordam berishdir. Bu maqsad o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari asosida belgilanishi, jamiyatning maqsad va ehtiyojlari bilan muvofiqashtirilishi lozim. Xorijiy va MDX davlatlarining ilg'or tajribasi (Fitzenberger B., Hillerich-Sigg A., Spriyetsma M., Hagans S. L., Kirby S. A., Grinshpun S. S., Dianina Ye. V., Krupskaya Yu. V., Serkova Ye. I., Shamsutdinova I. G.) shuni ko'rsatdiki, ushbu vazifani samarali amalga oshirishning muhim omillaridan biri – o'quvchilarning karyera rejasini shakllantirish va rivojlantirishdir ^[3; 5; 6; 8; 11; 14; 20]. Individual karyera rejasi o'quvchining kasbiy faoliyat orqali o'zini anglash jarayonini ishga joylashishdan emas, balki kasbiy faoliyat sohasini aniqlab, unda yuqori martabalariga erishish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda lavozim pog'onalarida martabaning o'sish yo'llarini belgilashdan boshlanadi. Buning uchun, eng avvalo, kasbga yo'naltirish metodikalari yordamida o'quvchi qaysi yo'nalishda karyerasini rivojlantirishi maqsadga muvofiqligini aniqlab olishi kerak.

Kasbga yo'naltirishga bunday yondashuv o'quvchiga maktabni bitirgandan so'ng biron kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki maktabdan keyingi ta'lim muassasasiga (kasbiy maktab, OTM va shu kabi) kirishdan avval, o'rta umumta'lim maktabining 8-9-sinflarida karyerasini rejalashtirish imkonini beradi. Kasbiy maslahat jarayonining quyida keltirilgan umumiy prinsipial sxemasida maslahatchi va maktab o'quvchisi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shu tarzda tashkil etiladi.

Kasbiy maslahatchi o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyat taktikasini shakllantirishga qaratadi. Masalan, o'quvchilarning kasbiy rejalari muhokama qilinayotganida ularning ota-onalari va o'qituvchilari o'z hayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashishlari mumkin. Agar maslahatchi-mutaxassis ushbu jarayonga yetarlicha qiziqish bildirmasa, o'quvchilarda kasbiy maslahatga bo'lgan ishonch pasayishi va, oqibatda, bu tajribadan individual kasbiy rejalarni shakllantirishda to'g'ri yo'nalish berish uchun foydalana olmaslik holati yuzaga kelishi mumkin. Psixologik, ijtimoiy yoki jismoniy rivojlanishida og'ishlar mavjud bo'lgan o'smirlik yoshidagi o'quvchilar uchun kasbiy maslahat ularning o'z holatini adekvat anglay olish qobiliyatlariga qarab tashkil etiladi. Bunday maslahatlarni maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan kasbiy maslahatchilar olib borishi kerak (masalan, kasbiy yo'nalish vazifalarini hal qilishga moslashtirilgan klinik metodi-



kalardan foydalangan holda). Bunday mutaxassis psixologik, tibbiy va huquqiy bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, qabul qilinayotgan qarorlar uchun to'liq mas'uliyatni anglashi shart.

KASBIY MASLAHAT		
Kasbiy maslaxat turlari		
Ma'lumot beruvchi	Diagnostik-korreksiyalovchi	Shakllantiruvchi
Vazifalari		
O'quvchilarni kasblar va tegishli ta'lim muassasalarining talablari, shuningdek, kasbga oid ma'lumotlar olish imkoniyatlari bilan tanishtirish	O'quvchi tanlamoqchi bo'lgan kasbini egallash imkonini turli obyektiv va subyektiv sabablar tufayli mavjud bo'lmaganida, uning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olib, o'quvchining kasbiy-muhim sifatlarini hisobga olib kasbni mutaxassislarga qo'ygan talablari bilan xududning ehtiyojlarini hisobga olib kasbga tayyorgarlik strategiyasini ishlab chiqish va kasbiy maslahatni shu strategiya asosida amalga oshirish	O'quvchiga kasbni o'zining individual xususiyatlari va kasbiy moyilligi, mehnat bozorining ehtiyojlari va kasb talablaridan kelib chiqib mustaqil va ongli ravishda tanlash yo'llarini o'rgatish
Kasbiy maslahat shakllari		
Frontal, guruhli	Guruhli, individual	Guruhli, individual
Kasbiy maslahat usullari		
Ma'ruza, davra suhbat, ekskursiya	Anketalashtirish, testlashtirish, tushuntiruvchi suhbat	Tushuntiruvchi suhbat, testlashtirish
Erishiladigan natijalar		
O'quvchilarda kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati, kasb turlari va malakaviy tavsifi, kasblar to'g'risida ma'lumotlarni olish manbaalari va mutaxassislarga sanoat korxonalarini va jamiyatda mavjud ehtiyojga oid bilimlar shakllanadi.	O'quvchida kasb tanlash motivlari va kasbiy-muhim sifatlarini shakllanganlik darajalari aniqlanadi hamda kasbni mutaxassisga qo'ygan talablari va mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqib kasb tanlash ishlari shu strategiya asosida korreksiyalanadi.	O'quvchining individual xususiyatlari va kasbiy moyilligi hamda mehnat bozorining ehtiyojlari va kasb talablaridan kelib chiqib individual karera rejasi tayyorlanadi.

1-rasm: Kasbiy maslahat jarayonining umumiy prinsipial sxemasi

Sog'liq va psixofiziologik xususiyatlarga alohida talab qo'yadigan kasblar (aviatsiya, harbiy o'quv yurtlari, konchilik, yuqori faoliyat kuchlanishini talab qiluvchi operatorlik mutaxassisliklari va h.k.) uchun nomzodlarni tanlab olishda kasbiy diagnostika usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Kasb talablariga javob berish yoki javob bermaslik sabablarini to'liq va asosli ravishda tushuntirish o'quvchiga kasb tanlashga oid qarorini o'zgartirib, ongli ravishda kerakli yo'nalishda o'zini tayyorlashiga yordam beradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, kasbiy yaroqlilik mehnat jarayonida shakllanishini unutmaslik kerak. Bunday turdagi maslahatni to'liq kasbiy maslahat deb emas, balki kasbiy tanlov deb atash mumkin. O'qish uchun ta'lim muassasasini tanlab, biroq qaysi mutaxassislikda to'xtash haqida ishonchga ega bo'lmagan o'quvchilarga yordam berish alohida kasbiy maslahat turi sifatida qaralishi mumkin. Bunday holda maslahatchining vazifasi – o'quvchi tanlagan o'quv yurti uning kasbiy va hayotiy maqsadlariga erishishdagi o'rnini tushunib olishiga ko'maklashish va shu asosda aniq mutaxassislik tanlashiga yordam berishdir. Tanlov aniqligi uchun izlanish faolligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rag'batlantirish juda muhim hisoblanadi. Quyida aniq mutaxassislikni tanlayotgan o'smirlar uchun mo'ljallangan kasbiy maslahatning faollashtiruvchi usullari qatoriga A. E. Golomshtokning "Qiziqishlar xaritasi" [12] va B. R. Kadrovning "Ikki signal tizimining o'zaro nisbati" [13] so'rovnomalari kiritish mumkin. "Qiziqishlar xaritasi" A. E. Golomshtok tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, maktabning yuqori sinf o'quvchilarida turli kasbiy faoliyat sohalariga qiziqish va moyillik shakllanganligini o'rganish uchun mo'ljallangan.

Savolnoma yordamida 23 ta kasbiy faoliyat sohasini aniqlash mumkin bo'lib, bular quyidagilardir: fizika, matematika, kimyo, astronomiya, biologiya, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, filologiya, jurnalistika, tarix, san'at, geologiya, geografiya, ijtimoiy faoliyat, huquq, transport, pedagogika, ko'k yoqali ishlar, xizmat ko'rsatish sanoati, qurilish, yengil sanoat, texnologiya, elektrotexnika. B. R. Kadirov tomonidan ishlab chiqilgan "Ikki signal tizimining o'zaro nisbati" so'rovinomasida ikki signal tizimi o'rtasidagi nisbat quyidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi:

- 1) dinamik xususiyatlar (faollik va o'zini-o'zi boshqarish);
- 2) emotsionallik va iroda;
- 3) jarayonlar – xotira, tasavvur, tafakkur.

Birinchi signal tizimi ko'rsatkichini salohiyat, faollik, emotsionallik, xotira va tasavvur tashkil qiladi. Ikkinchi signal tizimi ko'rsatkichi esa o'zini-o'zi boshqarish, iroda, tahliliy fikrlash, xavotir va o'z-o'zini baholashdan iborat. Mazkur metodikalarni maktablarda kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish doirasida – kasbiy maslahat jarayonida qo'llash o'quvchilarning kasb tanlashga qiziqishlari bilan nerv sistemasi (individual xususiyatlari) ni kasb talablariga qanchalik muvofiq kelishini o'zaro qiyoslash va individual karyera rejasini shakllantirishda samarali bo'lishi mumkin.

"Karyera" tushunchasini shaxsning kasbiy faoliyat orqali o'zini anglash va e'tirof etilishi jarayoni sifatida tavsiflash mumkin. Shaxsning kasbiy faoliyat orqali o'zini anglash jarayoni ishga joylashishdan emas, balki kasbiy faoliyat sohasini aniqlab, unda yuqori martabalarga erishish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda lavozim pog'onalarida martabaning o'sish yo'llarini rejalashtirishdan boshlanadi. Individual karyera rejasidagi vazifalarni amalga oshirish davrlarining davomiyligidan kelib chiqib, mazkur rejaning strategiyasi qisqa muddatli (5-6 yil) yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Karyerani rejalashtirish – uni rivojlantirish jarayonini boshqarish va samaradorligini nazorat qilish imkonini beradi. Individual karyera rejasini ishlab chiqish uzoq vaqt va katta mehnat talab qiladigan murakkab jarayon bo'lgani tufayli, ushbu jarayonda maktab o'quvchilari malakali kasbiy maslahatchining yordamiga ehtiyoj sezadilar.

XULOSA

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlari tizimli xarakterga ega. Ilg'or xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, maktablarda individual yondashuv asosida ishlash tamoyillariga tayangan holda maxsus tayyor-garlikka ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan o'quvchilar bilan kasbiy maslahatni tashkil etish, ushbu jarayonga o'qituvchilar, ota-onalar, mehnat birjasi, oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalarini bilan o'zaro hamkorlikda yondashish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, maktab o'quvchilariga kasb-hunar ta'limi va kasblar olamida hamrohlik qilishning keng tizimiga integratsiyalashuv imkonini beradi.

Bo'lajak kasbiy faoliyat sohasini tanlashda xatoliklarga yo'l qo'ygan bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun o'tkaziladigan kasbiy maslahat aniq yo'naltiruvchi xususiyatga ega bo'lishi lozim. U nafaqat kasbiy istiqbollarni, balki bitiruvchi sinf o'quvchisining bo'lajak kasbiy faoliyat sohasini tanlashda yo'l qo'ygan xatolarini ham hisobga olishi zarur. Bu tajriba ma'lum diagnostik ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchi kasbiy maslahatchi bilan birgalikda o'z tajribasini tahlil qilishi va shu asosda individual karyera rejasini optimal tarzda shakllantirishiga imkon yaratadi. Kasbiy maslahat bo'yicha malakali mutaxassis o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirishi nazarda tutiladi:

- o'quvchilarni kasblarning turlari va mehnat bozorida vaziyat to'g'risida xabardor qilib borish;
- kasblar mazmuni to'g'risida ma'lumot izlashda yordam berish;
- kasbga yo'naltirish darslarining uslubiy ta'minotini amalga oshirish;
- maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6476175>
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – B.157-158.
3. Fitzenberger B., Hillerich-Sigg A. and Sprietsma M. Different counselors, many options: Career guidance and career plans in secondary schools // German Economic Review, 21, no. 1 (April 28, 2020): 65–106. <http://dx.doi.org/10.1515/ger-2019-0027>.



4. Gulyamov D.R. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularning neyropedagogik xususiyatlarini hisobga olish // "Pedagogika" jurnali, № 3, 2017. – B.28-33.
5. Hagans C.L. The relationship of parental subsystem to high school and college students' career self-efficacy // Virtual Press, 1991. <http://liblink.bsu.edu/uhtbin/catkey/833008>.
6. Kirby C.A. Career and life style aspirations of gifted Canadian secondary school females // Diss., The University of Arizona, 1988. <http://hdl.handle.net/10150/184544>.
7. Амбарова П.А., Немировский М.В. Новые подходы к профессиональной ориентации в школе в условиях изменяющегося мира профессий // Образование: вызовы нового времени / Известия Уральского федерального университета. Серия 1. Том 26, № 1 (2020). – С.188-199. <https://journals.urfu.ru/index.php/Izvestia1/issue/view/385>.
8. Гриншпун С.С. "Академия X": подготовка американских школьников к жизни и труду // Педагогика. – 2006. – №4. – С.103-108.
9. Гулямов Д.Р., Пантин Р. Система профессиональной ориентации учащихся в современных условиях // Ж. "Педагогика". – Т., 2014. – №3. – С.14-18.
10. Давлетшин М.Г., Захарина М.С. Профессиональная ориентация учащихся. – Т.: Укитувчи, 1986. – 81 с.
11. Дианина Е.В. Российская и зарубежные системы управления профессиональной ориентацией учащейся молодежи: сравнительный анализ // Социодинамика, 2017, №3. – С.10-17.
12. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Садовникова Н.О. Профориентология: теория и практика: учеб. пособ. для высшей школы. – М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2004. – 192 с.
13. Кадыров Б.Р. Склонности и их индивидуально-природные предпосылки: на материале подросткового возраста: диссертация ... доктора психологических наук : 19.00.01. – Москва, 1990. – 301 с.
14. Крупская Ю.В., Серкова Е.И. Зарубежный и отечественный опыт организации и реализации профессиональной ориентации детей и учащейся молодежи // Думский вестник: теория и практика дополнительного образования, №1(9)/2017. – С.25-28.
15. Magzumov P.T. O'quvchilarni ishchi kasbiga yo'naltirish. – Т.: O'qituvchi, 2000.
16. Muslimov N.A. Kasb tanlashga yo'llash. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Т., 2007. – 205 s.
17. Овсянникова С.К. Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе: учебно-методическое пособие. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт. гуманит. ун-та, 2011.
18. Романова Е.С. Организация профориентационной работы в школе: методическое пособие. – М.: Издательский центр "Академия", 2013. – 304 с.
19. Селиванова З.К. Ранняя профориентация как насущная задача государственной политики // Власть, 2013. – №4. – С.136-139.
20. Шамсутдинова И.Г. Профессиональная ориентация учащихся во Франции // Педагогика. – 2007. – №14. – С.101-111.
21. Юзликаев Ф.Р. Методы интенсификации дидактической подготовки учителя-бакалавра. Монография. – Т., 2008. – 215 с.
22. Юлдашев Д.Г. Система повышения квалификации педагогических работников. – Т.: Шарк, 1996. – 160 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.